

“MAHALLA YETTILIGI” TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IJTIMOYIY AHAMIYATI

Imomov Jamshidxon Odilovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik kafedrasida dotsenti, PhD
E-mail: jamshidkhon@gmail.com

Muzaffarova Dilbar Mamalatif qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Raqamli iqtisodiyot kafedrasida assistenti
E-mail: d.muzaffarova@tsue.uz

Аннотация

Ushbu maqolada “Mahalla yettiligi” tizimining raqamli transformatsiyasi va uning ijtimoiy ahamiyati tahlil qilinadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) mahallaviy boshqaruv tizimlariga joriy etilishi boshqaruv samaradorligini oshirish, shaffoflikni ta’minlash hamda fuqarolar bilan interaktiv muloqotni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko’rsatadiki, raqamlashtirilgan mahalla tizimlari orqali aholining muammolari tezkor aniqlanadi, xizmatlar esa shaffof va samarali tarzda taqdim etiladi. Maqolada O‘zbekiston tajribasi va xalqaro amaliyotlar asosida “Mahalla yettiligi” tizimida DESI (Digital Economy and Society Index) modeli bo‘yicha baholash usuli tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, mazkur tizim hozirda 58 % tayyorgarlik darajasiga ega bo‘lib, uni to‘liq integratsiya qilish va rivojlantirish zarurati mavjud. Shu bilan birga, raqamli infratuzilmani takomillashtirish, elektron davlat xizmatlarini kengaytirish, AKT savodxonligini oshirish, sun’iy intellekt hamda Big Data texnologiyalaridan foydalanish strategiyalari taklif etiladi.

Ushbu maqolada mahallalarni aqlli boshqaruv tizimiga o‘tish imkoniyatlari o‘rganilgan va mahallaviy boshqaruvni zamonaviy raqamli yechimlar bilan takomillashtirish bo‘yicha ilmiy yondashuv taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, mahalla boshqaruvi, Mahalla yettiligi, AKT, DESI indeksi, raqamli infratuzilma, elektron xizmatlar, sun’iy intellekt, Big Data, shaffoflik, fuqarolik muloqoti, elektron hukumat, ma’lumotlar almashinuvi, innovatsion boshqaruv, raqamli iqtisodiyot.

Аннотация

В данной статье рассматривается цифровая трансформация системы «Махалля семёрки» и её социальное значение. Внедрение современных информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в системы махаллинного управления является важным фактором повышения эффективности управления, обеспечения прозрачности и развития интерактивного общения с гражданами. Мировой опыт показывает, что цифровые махаллинные системы позволяют оперативно выявлять проблемы населения и предоставлять услуги прозрачно и

эффективно. В статье на основе опыта Узбекистана и международной практики анализируется метод оценки системы «Махалля семёрки» по модели DESI (Индекс цифровой экономики и общества). Результаты показывают, что уровень готовности системы составляет 58%, что требует полной интеграции и дальнейшего развития. Кроме того, предлагаются стратегии по совершенствованию цифровой инфраструктуры, расширению электронных государственных услуг, повышению ИКТ-грамотности, а также использованию технологий искусственного интеллекта и Big Data.

Статья предлагает научный подход к исследованию возможностей перехода махаллей к умным системам управления и совершенствованию махаллинного управления с помощью современных цифровых решений.

Ключевые слова: цифровая трансформация, управление махаллей, Махалля семёрки, ИКТ, индекс DESI, цифровая инфраструктура, электронные услуги, искусственный интеллект, Big Data, прозрачность, гражданский диалог, электронное правительство, обмен данными, инновационное управление, цифровая экономика.

Abstract

This article analyzes the digital transformation of the "Mahalla Yettiligi" (Mahalla Seven) system and its social significance. The integration of modern information and communication technologies (ICT) into local governance systems is a crucial factor in enhancing administrative efficiency, ensuring transparency, and promoting interactive communication with citizens. Global experience shows that digitalized mahalla systems enable the prompt identification of community issues and provide services in a transparent and efficient manner. The article evaluates the "Mahalla Yettiligi" system based on Uzbekistan's experience and international practices using the DESI (Digital Economy and Society Index) model. The findings indicate that the system currently has a 58% readiness level, requiring full integration and further development. Moreover, strategies are proposed for improving digital infrastructure, expanding e-government services, increasing ICT literacy, and utilizing artificial intelligence and Big Data technologies.

This study presents a scientific approach to exploring the transition of mahallas to smart governance systems and improving local administration through modern digital solutions.

Keywords: digital transformation, mahalla governance, Mahalla Yettiligi, ICT, DESI index, digital infrastructure, e-services, artificial intelligence, Big Data, transparency, civic engagement, e-government, data exchange, innovative governance, digital economy.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda raqamli texnologiyalar davlat boshqaruvi va mahalliy jamoatchilik boshqaruvi tizimlarini samarali tashkil etishning asosiy vositalaridan biriga aylangan. O'zbekiston sharoitida "Mahalla yettiligi" tizimi mahallalardagi boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish, aholi muammolarini tezkor hal etish va ijtimoiy xizmatlarni samarali taqdim etish maqsadida joriy etilgan. Raqamlashtirish

ushbu tizimning samaradorligini oshirish, aholiga tezkor va ochiq xizmat ko'rsatish, fuqarolar bilan interaktiv muloqotni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, jamoatchilik tuzilmalarini boshqaruv tizimlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) keng joriy etilishi nafaqat boshqaruvni soddalashtiradi, balki tizimda shaffoflikni ta'minlaydi.

Raqamli transformatsiya dunyo bo'ylab ijtimoiy boshqaruv tizimlarida samarali joriy etilmoqda. Masalan, AQSH, Yevropa mamlakatlari¹, Yangi Zelandiya², Hindiston³ va Singapurda mahallaviy boshqaruvda raqamlashtirishga katta e'tibor qaratilib, "aqlli mahalla" (Smart Community)⁴ dasturlari joriy etilgan. Ushbu tizimlar orqali aholining muammolari real vaqt rejimida monitoring qilinib, muayyan sohalar bo'yicha tezkor yechimlar ishlab chiqilmoqda.

O'zbekistonda "Mahalla yettiligi" tizimiga raqamlashtirishni integratsiya qilish orqali mahallalar darajasida ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni tezkor aniqlash, elektron xizmatlarni rivojlantirish hamda mahalliy davlat organlari bilan uzviy hamkorlikni yo'lga qo'yish imkoniyati yaratilmoqda. Ilmiy nuqtai nazardan qaraganda, raqamlashtirish boshqaruv samaradorligini oshirish, byurokrtiyani qisqartirish va aholi bilan tezkor aloqani ta'minlashda dolzarb masala hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida mahallaviy boshqaruvni raqamlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-maydagi "Mahalla yettiligi" faoliyatini samarali tashkil etish hamda hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori faoliyatini eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) bo'yicha baholashda mahalla raisining ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 292-son qarorida "Mahalla yettiligi" tizimini samarali tashkil etish uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari bo'yicha baholash tizimi va yagona raqamli platformani joriy etish belgilangan.

Mazkur qaror doirasida mahalla yettiligi vakillarining faoliyat samaradorligini monitoring qilish va ularning ish natijalarini baholash imkoniyati yaratilgan. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali elektron hujjatlar almashinuvi, fuqarolarning murojaatlarini qabul qilish, ularni tahlil qilish va tezkor javob qaytarish tizimlari shakllantirilib, mahallaviy boshqaruvni zamonaviylashtirish yo'lga qo'yilgan.

Raqamli texnologiyalarning mahallaviy boshqaruv tizimlariga tatbiq etilishi jamiyat taraqqiyotida muhim bosqich hisoblanadi. "Mahalla yettiligi" tizimini raqamlashtirish orqali fuqarolar va davlat organlari o'rtasidagi samarali muloqot yo'lga qo'yilib, shaffoflik, hisobdorlik va xizmatlar sifati oshiriladi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, mahallaviy boshqaruvda raqamlashtirish nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki aholi ishtirokini kuchaytirib, ijtimoiy barqarorlikka ham xizmat qiladi.

¹ <https://nextdoor.com>

² <https://www.neighbourly.co.nz>


³ <https://www.simplylocal.app>

⁴ <https://www.smartnation.gov.sg/initiatives/urban-living/>

O‘zbekiston sharoitida mazkur yondashuvning amaliyotga tatbiq etilishi mahalla boshqaruvining samaradorligini, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini va fuqarolar bilan muloqotni yangi bosqichga olib chiqadi. Shu sababli, kelgusida mahallalarni aqlli boshqaruv tizimiga o‘tkazish, sun’iy intellekt asosidagi ma’lumotlar tahlilini yo‘lga qo‘yish va mobil ilovalar orqali mahallaviy xizmatlarni avtomatlashtirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Turli ilmiy manbalarda raqamli transformatsiya va raqamlashtirish tushunchalari turli ilmiy yondashuvlar asosida o‘rganilib, ularning ijtimoiy, iqtisodiy, boshqaruv va texnologik tizimlarga ta’siri bo‘yicha turlicha talqinlar mavjudligi qayd etilgan (1-rasm).



1-rasm. Raqamli transformatsiya tushunchasiga turli ilmiy yondashuvlar¹

¹ Muallif ishlanmasi.

Ayrim tadqiqotlarda raqamli transformatsiya innovatsiyalarni rivojlantirish va samaradorlikni oshirish vositasi sifatida baholansa, boshqa manbalarda u ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi natijasida bandlikka ta'siri va ijtimoiy tafovutni kuchaytirish xavfi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Raqamlashtirish esa davlat boshqaruvi va xususiy sektor faoliyatini optimallashtirish bilan birga, ma'lumotlarni qayta ishlash, saqlash va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun muhim jarayon sifatida qaraladi.

Tadqiqotchilar raqamli transformatsiya biznes jarayonlarini soddalashtirishi, iqtisodiy o'sish va global integratsiyani jadallashtirishi bilan birga, maxfiylik, kiberxavfsizlik va texnologik ishsizlik kabi muammolarni yuzaga keltirishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Shu sababli, ilmiy izlanishlarda ushbu jarayonlarni barqaror rivojlanish va ijtimoiy tenglik nuqtai nazaridan muhokama qilish zarurati mavjud.

Hozirgacha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli transformatsiya zamonaviy jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik sohalariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar va blokcheyn kabi texnologiyalar qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtirish va avtomatlashtirish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, raqamli tafovut, kiberxavfsizlik va shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligi muammolari ham dolzarb hisoblanadi.

Gheorghe Nadoleanu, Ana Rodica Stăiculescu va Emanuela Bran tomonidan olib borilgan tadqiqotda *Industry 4.0* va *Society 5.0* konsepsiyalariga asoslangan holda raqamli texnologiyalarning jamiyat rivojlanishiga ta'siri tahlil qilingan. Mualliflar texnologiyaning evolyutsion jarayondagi rolini qadimgi ovchilar jamiyatidan to bugungi aqlli ekotizimlargacha baholab, globallashtirish va axborot jamiyatining salbiy hamda ijobiy jihatlarini o'rganadilar. Tadqiqotda raqamli antropologiya, inson–kompyuter o'zaro ta'siri va raqamli kommunikatsiya masalalari yoritilib, texnologiyaning ijtimoiy tuzilma va shaxsiy hayotga ta'siri muhokama qilinadi. Mualliflar raqamli transformatsiyaning samarali va xavfsiz integratsiyasi uchun inson qadriyatlarini mustahkamlash va barqaror jamiyat qurishda ongli foydalanishni tavsiya etadilar. [1]

Md. Ariful Islam va Mohammad Rakibul Islam Bhuiyan tomonidan yozilgan tadqiqotda zamonaviy raqamli texnologiyalarning jamiyatga ijobiy va salbiy ta'sirlari tahlil etiladi. Raqamli iqtisodiyot yangi ish o'rinlarini yaratish bilan birga, maxfiylik muammolari, kiberjinoyatlar, yolg'on ma'lumotlar va psixologik salomatlikka salbiy ta'sir kabi xavflarni oshirgani ko'rsatilgan. Mualliflar raqamli transformatsiyaning ikki tomonlama ta'sirini baholab, jamiyatda texnologiyadan samarali va xavfsiz foydalanish uchun huquqiy hamda ijtimoiy choralarni muhim deb hisoblaydilar. [2]

Nuno Lopes, H.R. Rao, Sean A. McKenna, Soonae Yang, Elsa Estevez va Morten Nielsen tadqiqotlarida raqamli texnologiyalarning jamiyatga ta'siri keng yoritilgan. Tadqiqotda sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar, blokcheyn va 3D texnologiyalarining sanoat, biznes, boshqaruv hamda ijtimoiy munosabatlarga ta'siri ochib beriladi. Ushbu o'zgarishlar iqtisodiy tengsizlikni kuchaytirishi va ijtimoiy shoklarga olib kelishi mumkinligi ta'kidlanadi. Mualliflar texnologik rivojlanish bilan bog'liq xavflarni

kamaytirish uchun raqamli transformatsiyani puxta boshqarish strategiyalarini ishlab chiqishni tavsiya qiladilar. [3]

T. Lynn va hammualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotda raqamli texnologiyalarning fuqarolik jamiyatiga ta'siri tahlil qilinadi. Mualliflar sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar, blokcheyn va 5G texnologiyalarining fuqarolik jamiyati institutlariga ta'sirini o'rganib, ularning ijtimoiy o'zgarishlarga ta'sirini baholaganlar. Tadqiqotda raqamli transformatsiya ijtimoiy inklyuziya imkoniyatlarini oshirishi bilan birga, raqamli tafovutni ham kuchaytirishi mumkinligi ta'kidlanadi. Shuningdek, fuqarolik jamiyatining raqamli rivojlanishini o'lchash tizimlarini ishlab chiqish zarurati qayd etilgan. [4]

Natalia A. Demura va Natalia P. Putivtseva tomonidan olib borilgan tadqiqotda raqamli texnologiyalarning iqtisodiyot va jamiyat rivojlanishiga ta'siri tahlil qilingan. XXI asr boshida axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi sanoat, biznes, ta'lim va davlat boshqaruvida inqilobiy o'zgarishlarga olib kelgani yoritilgan. Mualliflar raqamli transformatsiya iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan birga, mehnat bozori va ijtimoiy tengsizlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Ular davlat tomonidan raqamli iqtisodiyotni tartibga solish va qo'llab-quvvatlash zarurligini ilgari suradilar. [5]

Xusanov Ulug'bek tadqiqotida raqamli texnologiyalarning iqtisodiyot va jamiyatga ta'siri tahlil qilinadi. Muallif sun'iy intellekt, blokcheyn, narsalar interneti (IoT), ma'lumotlar maxfiyligi va kiberxavfsizlik kabi sohalarning rivojlanishini o'rganib, ularning transformatsion salohiyati va ijtimoiy ta'sirini baholaydi. Tadqiqotda raqamli innovatsiyalarning barqarorlik, inklyuzivlik va axloqiy muammolarga ta'siri muhokama qilinadi. Muallif mas'uliyatli innovatsiyalar va ko'p tomonlama hamkorlik muhimligini ta'kidlaydi. [6]

METODOLOGIYA

Tadqiqot ishida Digital Economy and Society Index (DESI) modelidan foydalanildi. DESI modeli raqamli infratuzilma, fuqarolarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) savodxonligi, internet xizmatlaridan foydalanish, iqtisodiyotning raqamli texnologiyalar bilan integratsiyasi va davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi kabi asosiy ko'rsatkichlarni baholash imkonini beradi.

Ushbu model yordamida raqamli iqtisodiyotning rivojlanish darajasi, mahalliy iqtisodiyotning innovatsion texnologiyalar bilan uyg'unlashuvi hamda fuqarolarning raqamli xizmatlardan foydalanish darajasi tahlil qilinadi. Shuningdek, DESI modeli elektron tijorat, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (*Big Data*) orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi strategiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi.

“Mahalla yettiligi” tizimi doirasida DESI modelidan foydalanish orqali raqamlashtirish darajasi, aholining texnologiyalarga moslashuvi va davlat xizmatlarining shaffofligini baholash mumkin. Bu model iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish, barqaror raqamli strategiyalar ishlab chiqish va fuqarolarning AKT

savodxonligini kuchaytirish yo‘nalishlarida strategik qarorlar qabul qilish uchun muhim vosita hisoblanadi.

O‘zbekiston sharoitida DESI modeli raqamli transformatsiya jarayonining samaradorligini aniqlash, mavjud imkoniyatlarni baholash va kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashda muhim tahliliy vosita sifatida qaraladi.

Raqamli transformatsiya bugungi kunda zamonaviy iqtisodiyot va jamiyatni rivojlantirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Davlatlar, tashkilotlar va jamiyatlar raqamli texnologiyalarni qanchalik tez va samarali o‘zlashtirayotganini baholash uchun turli indekslardan foydalanadilar. DESI (Digital Economy and Society Index) – Yevropa Ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan va qo‘llaniladigan muhim indeks bo‘lib, raqamli infratuzilma, AKT savodxonligi, internet xizmatlaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning raqamli texnologiyalarga integratsiyasi kabi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi.

DESI indeksi 2014-yildan boshlab har yili Yevropa Komissiyasi tomonidan e‘lon qilinadi. Ushbu indeks Yevropa mamlakatlarining raqamli transformatsiya bo‘yicha taraqqiyotini tahlil qilish va solishtirishda qo‘llaniladi. DESI modeli, ayni paytda, raqamlashtirish strategiyalarini shakllantirish, davlat siyosatining samaradorligini oshirish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni rag‘batlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

DESI indeksi mamlakatlarning raqamli tayyorgarlik darajasini quyidagi besh asosiy yo‘nalish bo‘yicha baholaydi (1-jadval):

1-jadval.

Mamlakatning raqamli tayyorgarlik darajasini DESI modeli orqalik baholashning asosiy yo‘nalishi

Ko‘rsatkich	Tahlil yo‘nalishi	O‘lchov birligi
1. Raqamli infratuzilma (Connectivity)	Internet tezligi, keng polosali ulanish sifati va 5G tarmoqlarining joriy etilishi	Mbps, %
2. Fuqarolarning raqamli savodxonligi (Human Capital)	AKT bo‘yicha malakali xodimlar va fuqarolarning texnologik bilim darajasi	%
3. Internet xizmatlaridan foydalanish darajasi (Use of Internet Services)	Internetdan foydalanish chastotasi, elektron tijorat va internet orqali ko‘rsatiladigan xizmatlar	%
4. Iqtisodiyotning raqamli texnologiyalar bilan integratsiyasi (Integration of Digital Technology)	Sun‘iy intellekt (AI), Big Data, bulutli texnologiyalar va IoT ni iqtisodiyotga joriy etish	%
5. Davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi (Digital Public Services)	Elektron davlat xizmatlari, ochiq ma‘lumotlar va onlayn boshqaruv tizimlari	%

Barcha indikatorlar 0 dan 100% gacha bo‘lgan baholash tizimida ifodalanadi.

DESI hisoblash uchun har bir yo‘nalish bo‘yicha baho chiqarilib, umumiy indeks shakllantiriladi. DESI hisoblash formulasi quyidagicha:

$$DESI = \frac{(CI + HC + UI + DT + DPS)}{5}$$

Bu yerda:

- CI – Raqamli infratuzilma reytingi
- HC – Fuqarolarning AKT savodxonligi
- UI – Internet xizmatlaridan foydalanish darajasi
- DT – Iqtisodiyotning raqamli texnologiyalar bilan integratsiyasi
- DPS – Davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi

Barcha ko‘rsatkichlar bir xil og‘irlikka ega bo‘lib, ular bo‘yicha yig‘indi natijasi umumiy DESI indeksini beradi.

Raqamli tayyorgarlik darajasi 2-jadvalda keltirilgan mezonlar asosida baholanadi (2-jadval).

2-jadval

Raqamli tayyorgarlik darajasini baholash mezonlari¹

DESI DARAJASI (%)	TAYYORLIK DARAJASI	TAHLIL
80-100%	Yuqori tayyorgarlik	<i>Davlat to‘liq raqamlashtirilgan, AKT sektori rivojlangan va aholining aksariyati raqamli xizmatlardan foydalana oladi.</i>
60-79%	O‘rta tayyorgarlik	<i>Raqamli infratuzilma va xizmatlar rivojlangan, biroq ba‘zi sohalarda zaiflik mavjud.</i>
40-59%	Qisman tayyorlik	<i>Raqamlashtirish strategik yo‘nalishda rivojlanmoqda, lekin infratuzilma va AKT savodxonligi past darajada.</i>
0-39%	Past tayyorgarlik	<i>Raqamlashtirish jarayonlari boshlanmagan yoki juda sust rivojlangan.</i>

Mahallalarning raqamli rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish va muhim resurslarni samarali yo‘naltirish uchun Raqamli iqtisodiyot va jamiyat indeksi (Digital Economy and Society Index – DESI) natijalaridan foydalanish zarur.



2-rasm. Raqamli Iqtisodiyot va Jamiyat Indeksi ko‘rsatkichlari²

Raqamli Iqtisodiyot va Jamiyat Indeksi raqamli iqtisodiyotning o‘shishi va jamiyatning texnologik rivojlanishini tahlil qilish uchun muhim vosita hisoblanadi.

¹ Muallif ishlanmasi

² <https://eufordigital.eu/ru/library/digital-economy-and-society-index-desi-2020/>

TAHLIL VA NATIJALAR

Mahallalarning raqamli rivojlanishi internetga ulanish imkoniyatlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish darajasi va keng polosali tarmoq infratuzilmasi bilan bevosita bog‘liq. Statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, 2015–2023-yillar davomida internetga ulangan abonentlar soni sezilarli darajada oshgan. Bu esa mahallalarda raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashayotganini tasdiqlaydi.


Internet tarmog‘iga mobil aloqa orqali ulangan abonentlar soni 2015-yilda 7,8 million bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib 27 milliondan oshgan. Bu esa mobil internetga bo‘lgan talab ortganini va raqamli xizmatlardan foydalanish darajasi sezilarli ravishda kengayganini ko‘rsatadi. Keng polosali internet abonentlari soni ham 2015-yilda 466 ming bo‘lsa, 2023-yilga kelib 2,2 milliondan oshgan. Bu esa elektron xizmatlarning rivojlanishi va internet sifati yaxshilanayotganini bildiradi.

Internetdan foydalanish darajasi 100 aholiga nisbatan 2015-yilda 26,6 % bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilda 82,6 % ga yetgan. Bu esa aholining raqamli xizmatlardan foydalanish qamrovining ortganini bildiradi. Shu bilan birga, yuridik shaxslar tomonidan internetdan foydalanish darajasi 2015-yildagi 265 mingdan 2023-yilda 1,9 millionga oshgani mahallalarda raqamli biznes ekotizimining rivojlanib borayotganidan dalolat beradi.

Ushbu o‘zgarishlar raqamli infratuzilmani modernizatsiya qilish, davlat tomonidan raqamli strategiyalarni amalga oshirish va mahallalarda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni kengaytirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Kelajakda 5G texnologiyalarini joriy etish, sun‘iy intellektdan foydalanish va mahallaviy elektron xizmatlarni kengaytirish raqamli infratuzilmadagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi davlat boshqaruvi tizimining takomillashishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali davlat xizmatlarini ko‘rsatish sifati va samaradorligi oshib, fuqarolar uchun qulay va shaffof tizim shakllanmoqda. “Elektron hukumat” tizimi aynan shu maqsadda ishlab chiqilgan bo‘lib, uning natijasida ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlarining soni 350 taga yetdi. Bu esa 2022-yilga nisbatan 40 foizga ko‘p deganidir. Ushbu o‘sish raqamli platformalarning takomillashuvi, ma’lumotlar almashinuvi tizimining yaxshilanishi va davlat organlari o‘rtasidagi integratsiyaning oshgani bilan bog‘liq.

Davlat xizmatlarini avtomatlashtirish aholining vaqt va resurslarini tejashga katta hissa qo‘shmoqda. Xususan, fuqarolardan talab qilinadigan hujjatlar sonining 60 taga qisqartirilishi byurokratik jarayonlarni optimallashtirib, xizmatlardan foydalanishni osonlashtirdi. Natijada aholi ortiqcha qog‘ozbozlik va navbat kutish muammolaridan xalos bo‘lib, xizmatlardan tez va qulay foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Shuningdek, davlat xizmatlarining 80 foizdan ortig‘i elektron shaklga o‘tkazilgan bo‘lib, bu korrupsiya xavfini kamaytirish, davlat xizmatlarini shaffof va samarali qilish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda (2-rasm).



2-rasm. Raqamli iqtisodiyot ko'rsatkichlari¹

Raqamli transformatsiyaning yana bir muhim natijasi — davlat organlari oʻrtasidagi hamkorlikni kuchaytiruvchi maʼlumotlar almashinuvi platformasining yaratilishi boʻldi. Ushbu platforma turli idoralar oʻrtasida tezkor maʼlumotlar almashish imkonini yaratib, davlat xizmatlarini koʻrsatish muddatini sezilarli darajada qisqartirdi. Masalan, ilgari bir necha hafta davom etadigan xizmatlarni amalga oshirish endilikda bir necha daqiqaga qisqardi. Bu esa byurokratik toʻsiqlarni kamaytirish va xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qildi.

Davlat xizmatlarining raqamli transformatsiyasi faqat xizmat koʻrsatish sifatini oshirish bilan cheklanib qolmaydi, balki fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirok etish imkoniyatlarini ham kengaytiradi. “Elektron hukumat” tizimi foydalanuvchilarining soni 4 milliondan oshgani va 130 dan ortiq axborot resursining yagona tizimga integratsiya qilingani davlat xizmatlarining aholi uchun yanada yaqin va qulay boʻlishiga olib kelmoqda. Ushbu jarayon raqamli transformatsiyaning samaradorligini oshirish va aholining davlat xizmatlaridan foydalanish darajasini kengaytirish yoʻlidagi muhim natijalardan biridir.

3-jadval

DESI indeksining besh asosiy yoʻnalishi boʻyicha Mahalla yettiligi tizimidagi raqamli transformatsiya darajasi tahlili¹

Koʻrsatkich	Tahlil yoʻnalishi	Baholash (%)
Raqamli infratuzilma (Connectivity)	Mahallalarda internet qamrovi, mobil tarmoqlar sifati, keng polosali ulanish imkoniyati	65%
AKT savodxonligi (Human Capital)	Mahalla xodimlari va aholi orasida texnologik bilim darajasi	50%
Internet xizmatlaridan foydalanish (Use of Internet Services)	Davlat xizmatlari, elektron toʻlovlar, e-tijorat va fuqarolarning onlayn faolligi	60%
Iqtisodiyotning raqamli texnologiyalar bilan integratsiyasi (Integration of Digital Technology)	Sunʼiy intellekt, Big Data, IoT va blokcheynning mahallaviy tizimlarga joriy etilishi	45%
Davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi (Digital Public Services)	Elektron hujjatlar, davlat xizmatlari va ochiq maʼlumotlar tizimi	70%

Kelajakda raqamli texnologiyalarni davlat xizmatlariga keng joriy etish orqali sunʼiy intellekt, katta maʼlumotlar tahlili va blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari kengaytiriladi. Bu esa, oʻz navbatida, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga hamda davlat boshqaruvi tizimining yanada samarali boʻlishiga xizmat qiladi. Shu sababli, davlat xizmatlarini yanada avtomatlashtirish va raqamli

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi maʼlumotlari asosida muallif ishlanmasi.

¹ Muallif tadqiqotlari asosida olingan natijalar

infratuzilmani takomillashtirish barqaror rivojlanishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

DESI indeksining besh asosiy yoʻnalishi boʻyicha Mahalla yettiligi tizimidagi raqamli transformatsiya darajasi tahlil etildi (3-jadval).

Umumiy hisobda Mahalla yettiligi tizimining DESI boʻyicha bahosi 58% ni tashkil etadi, bu esa qisman tayyorlik darajasiga mos keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mahalla yettiligi tizimi Digital Economy and Society Index (DESI) modeli boʻyicha 58 % baho bilan qisman tayyorlik darajasida deb baholandi. Bu shuni anglatadiki, mahallalarning raqamli transformatsiyaga yoʻnaltirilishi kuzatilmoqda, biroq hali toʻliq integratsiyalashmagan. Raqamli infratuzilmaning mavjudligi tizimning rivojlanishiga ijobiy taʼsir qilsa-da, uning kengaytirilishi va sifat jihatdan yaxshilanishi talab etiladi. DESI koʻrsatkichlariga koʻra, mahallalarda internet qamrovi kengaymoqda, elektron xizmatlar joriy qilinmoqda, lekin bu jarayon aholining raqamli xizmatlardan foydalanish darajasiga va ularning texnologik savodxonligiga bogʻliq.

Ekspert tahlillariga koʻra, asosiy muammo fuqarolarning AKT texnologiyalaridan samarali foydalanish darajasining pastligi va elektron xizmatlarning cheklanganligi hisoblanadi. Davlat xizmatlarining raqamlashtirilishiga qaramay, aksariyat aholining raqamli texnologiyalarga ishonchi past, texnologiyalardan foydalanish qobiliyati yetarli emas. Shu sababli, Mahalla yettiligi tizimini toʻliq raqamlashtirish uchun aholining texnologik tayyorgarligini oshirish va infratuzilmani rivojlantirish boʻyicha kompleks choralar koʻrish zarur.

Mahallalarda raqamli infratuzilmani kengaytirish va yuqori tezlikdagi internet tarmogʻini yaxshilash birinchi navbatda amalga oshirilishi lozim boʻlgan vazifadir. 5G texnologiyasini joriy etish, keng polosali internet tarmogʻini kengaytirish va kam qamrab olingan hududlarga internet infrastrukturasi olib kirish orqali raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyati oshiriladi. Internet sifati past boʻlgan hududlarda raqamli xizmatlar toʻliq ishlamasligi xizmatlardan foydalanish darajasining pastligiga sabab boʻlmoqda. Shu bois, mahallalarda Wi-Fi tarmoqlarini kengaytirish va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish boʻyicha investitsiyalarni jalb qilish zarur.

Elektron xizmatlarning soni va ulardan foydalanish imkoniyatlari kengaytirilishi lozim. Hozirda elektron davlat xizmatlari mavjud boʻlsa-da, ularning samarali ishlashi va aholiga qulayligi yetarli darajada emas. Fuqarolarni ushbu xizmatlardan samarali foydalanishga oʻrgatish uchun oʻquv kurslari va texnologik treninglar tashkil etish muhimdir. Aholining AKT savodxonligini oshirish orqali raqamli xizmatlar joriy etilishi natijasida mahallalarning boshqaruv samaradorligi va xizmat koʻrsatish sifati ortadi.

Mahalla yettiligi tizimi uchun blokcheyn, sunʼiy intellekt va katta maʼlumotlar (Big Data) tahlilidan foydalanish jarayonlarini joriy qilish boshqaruv tizimini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin. Blokcheyn texnologiyasi orqali davlat xizmatlarining shaffofligini taʼminlash va korrupsiyani kamaytirish, sunʼiy intellekt orqali esa fuqarolar ehtiyojlariga mos xizmatlarni optimallashtirish va resurslardan samarali

foydalanish mumkin bo‘ladi. Katta ma’lumotlar tahlili esa mahallalarning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish darajasini monitoring qilish va tegishli strategiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Mahallalarda elektron tijorat ekotizimini rivojlantirish orqali mahallaviy tadbirkorlikni rag‘batlantirish va iqtisodiy barqarorlikni oshirish mumkin. Raqamli savdo platformalarining joriy qilinishi, kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun raqamli to‘lov tizimlarining kengaytirilishi iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi. Mahallalarda sun‘iy intellekt va avtomatlashtirilgan xizmatlar yordamida biznes jarayonlarini optimallashtirish, raqamli marketing imkoniyatlarini kengaytirish orqali mahallalarning global iqtisodiy integratsiyasi ham kuchayadi.

Agar yuqorida sanab o‘tilgan strategiyalar bosqichma-bosqich amalga oshirilsa, Mahalla yettiligi tizimi DESI bo‘yicha yuqori tayyorgarlik darajasiga yetishi mumkin. Buning natijasida mahallalarning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan rivojlanishi ta’minlanib, davlat xizmatlarining shaffofligi va samaradorligi oshiriladi.

Ushbu jarayon quyidagi natijalarga olib keladi:

- Mahallalardagi internet infratuzilmasi kengayib, yuqori tezlikdagi internet xizmatlaridan foydalanish yaxshilanadi.
- Fuqarolar AKT bo‘yicha o‘qitilib, elektron xizmatlardan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi.
- Davlat xizmatlari avtomatlashtiriladi, korrupsiyaga qarshi kurash kuchayadi va xizmat ko‘rsatish sifati yaxshilanadi.
- Raqamli iqtisodiyot rivojlanib, mahallalarning iqtisodiy barqarorligi oshadi.

Shunday qilib, Mahalla yettiligi tizimi DESI modeli asosida baholanib, rivojlanish strategiyalari amalga oshirilsa, u to‘liq raqamli boshqaruv tizimiga aylanishi mumkin. Bu esa davlat xizmatlarini optimallashtirish, mahallalarning iqtisodiy salohiyatini oshirish va fuqarolarning ijtimoiy hayotini yuksaltirish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-may 292-son “Mahalla yettiligi” faoliyatini samarali tashkil etish hamda hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori faoliyatini eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) bo‘yicha baholashda mahalla raisining ishtirokini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori. <https://www.lex.uz/docs/-6931871>

2. Nadoleanu, G., Stăiculescu, A. R., & Bran, E. (2022). The Multifaceted Challenges of the Digital Transformation: Creating a Sustainable Society. *Postmodern Openings*, 13(1Sup1), 300-316. DOI: 10.18662/po/13.1Sup1/428 <https://doi.org/10.18662/po/13.1Sup1/428>.

3. Islam, M. A., & Bhuiyan, M. R. I. (2023). Digital Transformation and Society. Centennial Book Project, University of Dhaka. SSRN: 4604376 <https://ssrn.com/abstract=4604376>.

4. Lopes, N., Rao, H.R., McKenna, S.A., Yang, S., Estevez, E., & Nielsen, M. (2023). Panel: Digital Transformation Impact on Society. Digital Transformation Colab, Portugal.
5. Lynn, T., et al. (2022). Digital Technologies and Civil Society. In Digital Towns (Chapter 5). Springer. DOI: 10.1007/978-3-030-91247-5_5 https://doi.org/10.1007/978-3-030-91247-5_5.
6. Demura, N.A., & Putivtseva, N.P. (2021). Цифровизация: сущность и роль в развитии национальной экономики. Научный результат. Экономические исследования, 7(1), 22-31. DOI: 10.18413/2409-1634-2021-7-1-0-3 <https://doi.org/10.18413/2409-1634-2021-7-1-0-3>.
7. Xusanov, U. (2024). Yangi kelajak uchun raqamli texnologiyalarni qamrab olish: imkoniyatlar va muammolar. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 3(2024), 187-192.
8. Russo, F. (2023). Digital Society is a Choice. Digital Society, 2(11). Springer. DOI: 10.1007/s44206-023-00042-6 <https://doi.org/10.1007/s44206-023-00042-6>.
9. Po'latov, M. E., & Nizomov, M. (2024). Raqamli iqtisodiyot sharoitida zamonaviy texnologiyalarning tutgan o'rnini va ahamiyati. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, Dekabr, 147-151.
10. <https://lex.uz>
11. <https://stat.uz/uz/>
12. <https://nextdoor.com>
13. <https://www.neighbourly.co.nz>
14. <https://www.simplylocal.app>
15. <https://www.smartnation.gov.sg/initiatives/urban-living/>

TOSHKENT SHAHRIDA BOLALAR VA O'SMIRLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINING ASOSIY TAMOYILLAR

Islomova Dilrabo Salomovna

TDIU “Turizm va mehmonxona biznesi”
kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Bolalar va o'smirlar turizmini rivojlantirish nafaqat turizm sanoati, balki jamiyatning ta'lim hamda madaniy-ma'rifiy rivojlanishi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada Toshkent shahrida bolalar va o'smirlar turizmining rivojlanish holati tahlil qilinib, asosiy muammolar hamda ularni hal qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bolalar turizmi infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmagan, ta'lim turizmi samaradorligi past hamda iqtisodiy omillar bolalar turizmiga to'sqinlik qilayotgan asosiy muammolar sirasiga kiradi. Shuningdek, maqolada Toshkent shahrida bolalar va o'smirlar turizmini rivojlantirish uchun strategik mexanizmlar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: bolalar turizmi, o'smirlar turizmi, turizm infratuzilmasi, ta'lim turizmi, iqtisodiy omillar, Toshkent.

Аннотация

Развитие детского и подросткового туризма имеет важное значение не только для туристической отрасли, но и для образовательного и культурно-просветительского развития общества. В статье анализируется развитие детского и подросткового туризма в Ташкенте, разрабатываются основные проблемы и предложения по их решению. Согласно исследованию, основными проблемами, препятствующими развитию детского туризма, являются неразвитость инфраструктуры детского туризма, низкая эффективность познавательного туризма и экономические факторы. В статье также разрабатываются стратегические механизмы развития детского и подросткового туризма в городе Ташкенте.

Ключевые слова: детский туризм, подростковый туризм, туристическая инфраструктура, познавательный туризм, экономические факторы, Ташкент.

Abstract

The development of children and adolescent tourism is important not only for the tourism industry, but also for the educational and cultural-enlightenment development of society. This article analyzes the development of children and adolescent tourism in Tashkent, develops key problems and proposals for their solution. According to the results of the study, the infrastructure of children's tourism is not sufficiently developed, the efficiency of educational tourism is low, and economic factors are among the main problems hindering children's tourism. The article also develops strategic mechanisms for the development of children and adolescent tourism in Tashkent.

Keywords: children's tourism, adolescent tourism, tourism infrastructure, educational tourism, economic factors, Tashkent.

KIRISH

Bolalar va o'smirlar turizmi jahon turizm industriyasining muhim segmentlaridan biri hisoblanadi. Bolalar va o'smirlar turizmi — bu yosh avlodning dam olish, ta'lim, madaniy va sport faoliyati bilan shug'ullanishi uchun mo'ljallangan turizm shakli. Bu turizm shakli yoshlarning jismoniy, ma'naviy va intellektual rivojlanishiga hissa qo'shadi. Toshkent shahri tarixiy, madaniy va tabiiy boyliklari bilan bolalar va o'smirlar uchun qiziqarli yo'nalishlarni taklif etadi.

Bolalar va o'smirlar turizmi — bu yosh avlodning intellektual, jismoniy va madaniy rivojlanishini ta'minlovchi sayohat shakli bo'lib, u ta'lim, sarguzasht, sog'lomlashtirish va ijtimoiy faollikni o'z ichiga olgan holda bolalar va o'smirlarning shaxsiy tajribalari orqali olamni kashf etishiga, yangi bilim va ko'nikmalar hosil qilishiga hamda atrof-muhit va jamiyat bilan uyg'un munosabatlar o'rnatishiga ko'maklashadi.

Xalqaro turizm tashkilotlari (UNWTO, 2023) hisobotlariga ko'ra, bolalar va yoshlar turizmi global turizmning 20 % ini tashkil etib, 2030-yilga borib ushbu ko'rsatkich yanada oshishi kutilmoqda. Bu turizm turi nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki ta'lim, madaniy-ma'rifiy hamda ijtimoiy integratsiya nuqtayi nazaridan ham katta ahamiyatga ega.

Toshkent shahrida turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, bolalar va o'smirlar uchun maxsus turistik mahsulotlar yetarlicha rivojlanmagan. Joriy holat bo'yicha muammolar quyidagilardan iborat:

- Bolalar va o'smirlar uchun maxsus ekskursiyalar soni cheklangan;
- Turizm infratuzilmasi yosh sayyohlar ehtiyojiga moslashtirilmagan;
- Ta'lim turizmi dasturlari sust rivojlangan;
- Iqtisodiy omillar tufayli bolalar va yoshlarning turizmga ishtirok etish darajasi past.

Yuqoridagilarni inobatga olganda, Toshkent shahrida bolalar va o'smirlar turizmini rivojlantirish mexanizmlarini aniqlash, mavjud muammolarni tahlil qilish va yechimlar taklif qilish muhim tadqiqot yo'nalishi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bolalar va o'smirlar turizmi bo'yicha xalqaro va milliy tadqiqotlar ushbu turizm segmentining turli jihatlarini o'rganib, uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalar va o'smirlar turizmi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va madaniy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Quyida so'nggi yillarda ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlarning natijalari tahlil qilinadi.

Richards & Wilson (2003) o'z tadqiqotida yoshlar turizmining rivojlanish tamoyillarini o'rgangan va uni yoshlarning ta'lim olishga bo'lgan intilishlari bilan bog'lagan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yoshlarning turizmga jalb etilishi ularning ijtimoiy integratsiyasi va ta'lim sifati oshishiga xizmat qiladi.

Glover (2010) esa turizm va ta'lim integratsiyasi mavzusiga e'tibor qaratib, yoshlar sayohati ularning bilim va tajribalarini oshirishga, shuningdek, madaniy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilishini ta'kidlagan. Uning tadqiqotida turistik faoliyatga jalb qilingan bolalar va o'smirlar kelajakda yanada ijtimoiy faollik ko'rsatishi aniqlangan.

Larsen & Guiver (2013) esa bolalar uchun ekologik turizmning afzalliklarini o'rganib chiqib, uning yosh avlod ongi va atrof-muhitga munosabatini shakllantirishdagi ahamiyatini tahlil qilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bolalar turizmini ekologik ta'lim bilan uyg'unlashtirish uzoq muddatli natijalarga erishishga yordam beradi.

Briedenhann (2018) kichik shaharlar va bolalar turizmi mavzusida olib borgan tadqiqotida turizm infratuzilmasining rivojlanishi bolalar turizmi darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlagan. Uning tadqiqotiga ko'ra, maxsus o'yin maydonchalari, interaktiv muzeylar va ekologik parklar kabi infratuzilma loyihalari bolalar turizmini rag'batlantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Jensen & Zhang (2019) bolalar va sport turizmini o'rganib, ushbu turizmdan foydalanish yosh avlodning jismoniy va psixologik rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan. Xususan, sportga asoslangan turistik tadbirlar bolalarning ijtimoiy faolligi va jamoaviy ishchanlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berishi ko'rsatib o'tilgan.

UNWTO (2021) bolalar turizmi bo'yicha global hisobotida yangi texnologiyalar turizmida muhim rol o'ynayotganini tahlil qilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bolalar turizmida virtual haqiqat (VR), interaktiv mobil ilovalar va raqamli ta'lim texnologiyalarini qo'llash turizmga bo'lgan qiziqishni oshiradi va yosh avlodning turistik faoliyatda ishtirok etishini kuchaytiradi (1-jadval).

1-jadval

Bolalar va o'smirlar turizmini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar¹

Muallif va yil	Tadqiqot mavzusi	Asosiy natijalar
Richards & Wilson (2003)	Yoshlar turizmining rivojlanish tamoyillari	Yoshlar turizmi ta'lim va ijtimoiy integratsiyaga ta'sir qiladi
Glover (2010)	Turizm va ta'lim integratsiyasi	Ta'lim turizmi yoshlar bilimini oshiradi
Larsen & Guiver (2013)	Bolalar uchun ekologik turizm	Ekologik turizm bolalar ongida barqaror rivojlanish tushunchasini shakllantiradi

¹ Muallif tadqiqotlari asosida olingan natijalar

Muallif va yil	Tadqiqot mavzusi	Asosiy natijalar
Briedenhann (2018)	Kichik shaharlar va bolalar turizmi	Infratuzilma va axborot yetishmovchiligi bolalar turizmiga salbiy ta'sir qiladi
Jensen & Zhang (2019)	Bolalar va sport turizmi	Sport turizmi bolalar jismoniy va psixologik rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi
UNWTO (2021)	Bolalar turizmi global tendensiyalari	Yangi texnologiyalar bolalar turizmida muhim rol o'ynaydi
Nasritdinov (2022)	O'zbekiston turizmi va yoshlar	O'zbekistonda yoshlar turizmini rivojlantirish uchun moliyaviy rag'batlantirish tizimi zarur

Ilmiy tadqiqotlardan ma'lum bo'ladiki, bolalar turizmini rivojlantirish uchun muhim tamoyillar quyidagilardan iborat: maxsus turistik maskanlar va o'yin maydonchalari yaratish, maktab va universitetlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, interaktiv dasturlar orqali yoshlarni jalb qilish.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda Toshkent shahrida bolalar va o'smirlar turizmini rivojlantirish bo'yicha ma'lumotlar asosan so'rovnoma va intervyu usullari orqali yig'ildi. Olingan ma'lumotlar kontent tahlili va statistik usullar yordamida tahlil qilindi. Shuningdek, mavjud normativ-huquqiy hujjatlar ham tahliliy asosda o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari Toshkent shahrida bolalar turizmini rivojlantirish bo'yicha jiddiy muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Toshkent shahrida bolalar turizmidan foydalanish ko'rsatkichlari bo'yicha so'rovnoma asosida olingan natijalar 2-jadvalda aks etgan (2-jadval).

2-jadval

Toshkent shahrida bolalar turizmidan foydalanish ko'rsatkichlari¹

Ko'rsatkich	2019	2020	2021	2022	2023
Bolalar turizmidan foydalanganlar (%)	38	30	22	27	35
Ota-onalarning qoniqish darajasi (%)	50	45	40	48	55

2-jadvalda Toshkent shahrida bolalar va o'smirlar turizmiga bo'lgan talab va undan foydalanish darajasi aks ettirilgan. 2019-yilda bolalar turizmida ishtirok etganlarning ulushi 38 % bo'lgan bo'lsa, 2020–2021-yillarda bu ko'rsatkich pandemiya sabab keskin kamaygan va 22 % gacha tushgan. Biroq 2022-yildan boshlab barqaror tiklanish kuzatilmoqda va 2023-yilda bolalar turizmida ishtirok etganlarning ulushi 35 % ga yetgan.

¹ Muallif tadqiqotlari asosida olingan natijalar

Boshqa tomondan, ota-onalarning bolalar turizmiga bo‘lgan qoniqish darajasi ham o‘zgarib kelgan. 2019-yilda ota-onalarning 50 %i turizm xizmatlari sifati va infratuzilmasidan mamnun bo‘lgan bo‘lsa, pandemiya yillarida qoniqish darajasi 40 % gacha tushgan. 2022-yildan boshlab yangi turistik maskanlarning tashkil etilishi va xizmatlarning takomillashtirilishi natijasida qoniqish darajasi oshgan va 2023-yilda 55 %ni tashkil qilgan.

2-jadval bo‘yicha olingan natijalar Toshkent shahrida bolalar turizmini rivojlantirish uchun qo‘shimcha infratuzilma yaratish, narxlarni pasaytirish va sifatni oshirish bo‘yicha strategik chora-tadbirlar zarurligini ko‘rsatadi (3-jadval).

3-jadval

Toshkent shahrida ota-onalarning bolalar turizmiga munosabati¹

Ko‘rsatkich	Foiz (%)
Narxlar qimmat deb hisoblovchilar	80%
Infratuzilma yetarli emas deb hisoblovchilar	70%
Ta‘lim turizmining ahamiyati past deb hisoblovchilar	40%

3-jadval ma‘lumotlari Toshkent shahrida bolalar turizmi rivojlanishiga ta‘sir qiluvchi asosiy muammolarni yoritadi. Respondentlarning 80 %i bolalar turizmi xizmatlari narxlarini yuqori deb hisoblaydi. Bu natija ota-onalarning bolalar turizmida ishtirok etishining muhim iqtisodiy to‘siqlaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. Moliya jihatdan zaifroq oilalar uchun subsidiya dasturlari va chegirmalar mavjud bo‘lmasa, bolalar turizmiga talab ortishi qiyin bo‘lishi mumkin.

Infratuzilma bilan bog‘liq muammolar ham muhim omil hisoblanadi. Respondentlarning 70 %i Toshkent shahrida bolalar uchun maxsus turistik joylarning yetarli emasligini ta‘kidlagan. Bu natija Toshkentda tematik parklar, interaktiv muzeylar va o‘yin zonalarining rivojlantirilishi zarurligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, ota-onalarning 40 %i ta‘lim turizmining ahamiyatini past deb hisoblagan. Bu esa maktab va ta‘lim muassasalari bilan turistik kompaniyalar o‘rtasidagi hamkorlikning kuchsizligi va turizmning o‘quv jarayoniga yetarlicha integratsiya qilinmaganligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin (4-jadval).

4-jadval

Toshkent shahrida bolalar turizmi infratuzilmasining rivojlanish darajasi (2023)²

Ko‘rsatkich	Holati
Maxsus bolalar sayyohlik markazlari	5 ta mavjud
Maktablar bilan hamkorlikdagi dasturlar	20%
Turizmni raqamlashtirish darajasi	35%
Davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash	10%

4-jadval Toshkent shahrida bolalar turizmini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan infratuzilmaning hozirgi holatini aks ettiradi. Faqat 5 ta maxsus markaz mavjud bo‘lib,

¹ Muallif tadqiqotlari asosida olingan natijalar

² Muallif tadqiqotlari asosida olingan natijalar

bu katta shaharning ehtiyojlari uchun yetarli emas. Shuning uchun yangi bolalar sayyohlik markazlarini tashkil etish talab etiladi. Mavjud dasturlarning atigi 20 %i maktablar bilan hamkorlikda tashkil etilgan. Holbuki, xalqaro tajribada maktablar orqali ta'lim-turizm dasturlarini keng joriy etish samarali natijalar berishi isbotlangan. Toshkent shahrida bolalar turizmining raqamlashtirish darajasi atigi 35 %ni tashkil etadi. Ya'ni, ota-onalar va bolalar uchun onlayn bron qilish tizimlari, virtual turlar va raqamli qo'llanmalar yetarlicha rivojlanmagan. Davlat tomonidan bolalar turizmini rag'batlantirish uchun ajratilayotgan subsidiyalar 10 %ni tashkil etadi, bu esa rivojlangan davlatlar ko'rsatkichlaridan ancha pastdir.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari Toshkent shahrida bolalar turizmini rivojlantirish uchun mavjud salohiyatdan to'liq foydalanilmayotganini ko'rsatadi. Jumladan, infratuzilmaning zamonaviy talablar darajasida emasligi, ta'lim muassasalari bilan hamkorlikning sustligi va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarning turizm xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi sohaning rivojlanish sur'atlarini sekinlashtirmoqda. Shu bois, bolalar turizmi rivojini jadallashtirish uchun quyidagi strategik yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

Davlat tomonidan subsidiyalar ajratish va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar uchun maxsus chegirmalar joriy etish – bu orqali aholining turli qatlamlari, ayniqsa, iqtisodiy imkoniyati cheklangan oilalar farzandlarining turizm xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari kengayadi. Bunday yondashuv ijtimoiy tenglik va inklyuziv turizm tamoyillariga asos bo'ladi.

Turistik infratuzilmani rivojlantirish – bolalar uchun mo'ljallangan yangi turistik maskanlar qurilishi, mavjud obyektlarning rekonstruksiya qilinishi hamda interaktiv va zamonaviy texnologiyalarga asoslangan sayohat dasturlarining joriy etilishi turizm xizmatlarining sifatini oshiradi. Bu esa bolalar turizmining jozibadorligini va raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Ta'lim turizmini rivojlantirish – maktab o'quv dasturlariga ekskursiyalarni integratsiyalash, turistik tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlash orqali o'quvchilar uchun ma'naviy-ma'rifiy va tarixiy ahamiyatga ega joylarga tashriflar yo'lga qo'yiladi. Bu nafaqat turizmni, balki yosh avlodning dunyoqarashi va vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda ham muhim vositaga aylanishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari Toshkent shahrida bolalar va o'smirlar turizmi rivojlanishida bir qator tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatdi. Jumladan, yoshlar uchun mo'ljallangan maxsus turistik infratuzilmalarning yetarli emasligi, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning ushbu xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarining cheklangani hamda raqamli xizmatlar darajasining pastligi ushbu sohaning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur muammolarni bartaraf etish, shuningdek, bolalar va o'smirlar uchun jozibador, xavfsiz hamda ta'limiy ahamiyatga ega bo'lgan turizm

yoʻnalishlarini shakllantirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

Bolalar uchun maxsus ekskursiya maskanlari va oʻyin maydonchalarini tashkil etish – bu orqali yosh avlod vakillarining madaniy-maʼnaviy bilim doirasini kengaytirish, ularning boʻsh vaqtini mazmunli tashkil etish va ijtimoiy faolligini oshirish mumkin boʻladi. Maskanlar yosh bolalarning qiziqishlari va xavfsizlik talablaridan kelib chiqib loyihalashtirilishi zarur.

Kam taʼminlangan oilalar uchun subsidiya dasturlarini kengaytirish – bunday ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash choralari orqali barcha ijtimoiy qatlam vakillarining turizm xizmatlaridan teng foydalanishiga erishish mumkin. Bu esa ijtimoiy inklyuziv va adolat tamoyillariga mos keladi.

Maktablar doirasida sayohat dasturlarini yoʻlga qoʻyish – taʼlim jarayoniga integratsiyalashgan sayohatlar oʻquvchilarning tarixiy, madaniy va tabiiy merosga boʻlgan qiziqishini kuchaytiradi. Bu orqali nafaqat turizm, balki taʼlim-tarbiya jarayonining sifati ham oshadi.

Onlayn bron qilish va raqamli yoʻriqnoma tizimlarini ishlab chiqish – raqamli xizmatlarning joriy etilishi turistik faoliyatni zamonaviylashtirishga xizmat qiladi. Bu tizimlar orqali ota-onalar va oʻqituvchilar ekskursiyalarni oldindan rejalashtirib, qulay va xavfsiz xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega boʻladilar.

Xulosa qilib aytganda, mazkur chora-tadbirlarning tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi Toshkent shahrida bolalar va oʻsmirlar turizmini rivojlantirish, ularning madaniy va ijtimoiy rivojlanishiga koʻmaklashish hamda ushbu sohani iqtisodiy jihatdan barqaror soha sifatida shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Richards, G., & Wilson, J. (2003). Youth Tourism Development: Trends and Future Prospects. *Annals of Tourism Research*, 30(1), 233–252.
2. Glover, P. (2010). Tourism and Education: Enhancing the Learning Experience. *Journal of Travel Research*, 49(2), 231–245.
3. Larsen, J., & Guiver, J. (2013). Eco-tourism for Children: Impact on Environmental Awareness. *Environmental Education Research*, 19(5), 591–608.
4. Briedenhann, J. (2018). Small Town Tourism and Infrastructure: Challenges and Opportunities. *Tourism Management*, 39(4), 658–671.
5. Jensen, L., & Zhang, Y. (2019). Children and Sports Tourism: The Role of Physical Activity in Travel Choices. *International Journal of Sport Management*, 14(3), 211–229.
6. Rustamovich, D. B. (2020). Analysis of the Development of Tourism in Uzbekistan. *Journal of International Business Research and Marketing*, 5(6), 28-33.
7. UNWTO (2021). *Global Report on Children's Tourism Trends and Digital Innovation*. Madrid: World Tourism Organization.

8. Rustamovich, D. B. (2023). Financing Domestic Tourists And Export Of Tourism Services. *Fan, ta'lim, madaniyat va innovatsiya*, 2, 35-37.

9. Nasritdinov, E. (2022). Uzbekistan's Tourism and Youth Development: Policy Recommendations for Sustainable Growth. *Central Asia Economic Review*, 15(2), 91–108.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, mart, 3-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**